

**2023 yilning 4-choragi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish
tizimining amal qilishi haqida
UMUMIY HISOBOT ***

MCHJ «O`zEraeAlternator» QKda tashkil qilingan aloqa kanallari bo'yicha ishlar amalga oshirilgan. Ya'ni, Ishonch telefoni 2010 yil февраль oyida (73-220-00-16), Rasmiy veb-saytdagi aloqa kanali 2021 yil mart (uea.uz) oyida tashkil qilingan.

Bundan tashqari, MCHJ «O`zEraeAlternator» QKda 2023 yilning 4-choragi davomida korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlar mavjud emas.

2023 yilning 4-choragi davomida ishga qabul qilingan ishchi hodimlar 2 nafarni tashkil qiladi.

Shuningdek, "UzautoComponents" MCHJning 26.09.2022 yildagi 07-042-sonli "Komplayens nazoratiga oid hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va tizimlashtirish to'g'risida"gi qabul qilingan buyrug'i asosida "O`zEraeAlternator" MCHJ QKda O'zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi Korruasiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-son "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021 yil 16 iyundagi PF-6247-son "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019 yil 27 maydagi PF-5729-son "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari talablarini o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash maqsadida korxonada qabul qilingan siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo'riqnomalar bilan korxonaning barcha xodimlari tanishtirilgan.

Korxonada manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha tegishli ichki idoraviy hujjatga asosan xodimlar tomonidan 2023 yilning 4-choragi davomida to'ldirilgan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha deklarasiyalar tahlil qilib chiqildi.

Tahlillar davomida tashkilotda manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanmaganligi ma'lum qilinadi.

Korxonada 2023 yil uchun korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi tasdiqlangan va ijrosi nazoratga olingan.

Bunda,

Mahalliyashtirish- "UzEraeAlternator" QKda GEM generatori loyixasi bo'yicha : 01-sonli 10.10.2022 yilgi Valeo (Fransiya) korxonasi bilan MCHJ "O'zEraeAlternator" QK o'rtasida TLA lisenziya shartnomalar imzolangan. Shartnoma qiymati 1 500 000 Yevro. Loyixa ishga tushirilishi uchun UzAvto Baerlari xodimlari tomonidan PSSR (01.10.2023 yil holatiga ochilmagan) ochilishi kerak.

Kadr yo'nalishi-2023 yilning 4-choragi davomida ishga qabul qilingan hodimlar 2 nafarni tashkil qiladi.

Korxonada 4-chorak davomida o'z arizasi asosida ishdan bo'shatilgan hodimlar mavjud emas.

Ta'minot yo'nalishi-Cobalt avtomobili butlovchi qismlari 14260 komplekt, ta'minot 2024 yilning 16 fevraligacha. Yo'lda 2088 komplekt maxsulot bor. Yo'ldagi maxsulotlar bilan birga ta'minlanganlik 2024 yilning 21 fevralgacha ta'minlangan.

-Lacetti avtomobili butlovchi qismlari 7648 komplekt, ta'minot 2024 yilning 16 fevralgacha. Yo'lda 2816 komplekt maxsulot bor. Yo'ldagi maxsulotlar bilan birga ta'minot 2024 yilning 2 martiga qadar ta'minlanadi.

-Damas avtomobili butlovchi qismlari omborda 18135 komplekt mavjud, ta'minot 2024 yilning 14 fevraliga qadar. Yo'lda 6359 komplekt maxsulot bor. Yo'ldagi maxsulotlar bilan birga ta'minot 2024 yilning 01 martiga qadar ta'minlangan.

Xarid yo'nalishi-hisobot davrida tuzilgan xo'jalik shartnomalari soni jami 195 ta shartnoma tuzilgan bo'lib, jami summasi 1479,9 mln.so'mni tashkil qiladi.

Korxonada Korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy hujjatlar bilan hodimlar tanishtirildi.

**Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat
tuzilmasi mutaxasisi**



M.Matnazarov